

TILLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELEKTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xudayqulova Zarina Xusan qizi
O‘zDJTU, Ingliz tili 1-fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili
1-bosqich talabasi
zarinakhudayqulova@gmail.com
+998919653566

Annotatsiya: *Ushbu tezisda tillarni o‘qitish jarayonida sun‘iy intellektning o‘rni qanchalik muhimligi, dars jarayonlaridagi fundamental ahamiyati hamda bu borada prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar keng yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sun‘iy intellekt texnologiyalari, til ko‘nikmalarini shakllantirish.*

Kirish. Bugungi globallashib borayotgan davrda insonlar uchun chet tillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta‘lim tizimida tillarni o‘rganish borasida sun‘iy intellekt texnologiyalariga ham murojaat qilinayotgani jarayonni yana-da samarali qilishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda prezidentimizning sun‘iy intellekt texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirayotgan sa‘y-harakatlari bu borada ijobiy natijaga olib chiqishi tabiiy. Misol uchun, 2024-yil 14-oktabrdagi Prezidentimiz qarori bilan “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” rasmiy tarzda tasdiqlandi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda sun‘iy intellekt til o‘rganishning barcha bosqichlariga kirib keldi va bu jarayon avvalgiga qaraganda ancha oson kechayotgani til o‘rganuvchini tezroq natijaga olib boradi. Masalan, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda maxsus ilovalar (Google Speech, Duolingo) nutqdagi talaffuz xatolarini aniqlaydi va aniq tavsiyalar beradi. Bu usul til o‘rganuvchining chet tilida erkin muloqot qilishda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Dars jarayonlarida o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda ham sun‘iy intellekt yetarlicha o‘rin tutmoqda. Ya‘ni til o‘rganuvchining darajasiga mos ravishda o‘quv materiallarini tayyorlash, mavzuga mos mashqlar orqali o‘z bilim darajasini aniqlash, xatolari ustida ishlash hamda yozish ko‘nikmasi borasida yozilgan topshiriqlardagi grammatik, leksik, sintaktik, uslubiy va boshqa xatolarni topib, aniq tavsiyalar taklif qilishi til o‘rganuvchining yana-da izlanishiga sabab bo‘ladi. Albatta, sun‘iy intellekt til o‘qitish jarayonlarida nafaqat o‘rganuvchi uchun,

balki o'qituvchi uchun ham birdek foyda keltiradi. Ya'ni o'rgatilgan ma'lumotlar yuzasidan avtomatik test yaratish, bajarilgan topshiriqlarni baholash paytida o'qituvchiga sezilarli darajada ko'maklasha oladi. Yana bir muhim jihati shundaki, sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rganuvchilarning o'z ehtiyojlarini aniqlab, shaxsiy o'quv rejasini tuzib bera oladi. Masalan, til o'rganuvchi grammatikadan ko'proq qiynalayotgan bo'lsa, sun'iy intellekt vositalari avtomatik tarzda shu bo'yicha mashqlarni ko'paytiradi, kuchli bo'lgan jihatlarni esa qisqartiradi. Bu yondashuv samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. "Google Translate" yoki "Chatgpt" kabi vositalar tezroq tarzda tarjima qilish, murakkab matnlarni soddalashtirish, sinonimlar taklif qilish kabi qulayliklarni yaratadi. Bu jarayon til o'rganuvchining faqat tushunish ko'nikmasini emas, balki ularning lug'at boyligini ham mustahkamlaydi. Bundan tashqari "Kun.uz" sayti ma'lumotlariga ko'ra, Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 21-oktabrda bo'lib o'tgan videoselektorda O'zbekiston 2030-yilgacha sun'iy intellekt bo'yicha top-50 davlatlar ichida bo'lishi kerakligi haqida fikrlarni ilgari surgan. Shu bilan bir qatorda, sun'iy intellekt bilan shug'ullanadigan laboratoriyalar sonini 10 tagacha oshirish taklifini o'rtaga qo'ygan. Bu bilan sun'iy intellekt texnologiyalari tizimli ravishda ta'limdan tortib, boshqa turli yo'nalishlarga cha zarur imkoniyatlarni yaratib berayotganini bilib olish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari tillarni o'qitish davomida muhim vosita sifatida o'z vazifasini bajarmoqda. Sun'iy intellekt o'quv jarayonining samaradorligiga, til ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda dars mashg'ulotlarining qiziqarli shaklda o'tishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha O'zbekistonni ilg'or mamlakatlar safida yetakchilikka olib chiqishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuldosheva N. Y. May 30, (2025) "Tillarni o'qitishda sun'iy intellekt yordamida tarjimon dasturlardan foydalanishning ahamiyati". - Buxoro innovation ta'lim va tibbiy universiteti.
2. Umirova D., Abdulhamidova J., Polatbayeva N. Iyun 1, (2025) "Xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellektning o'rni va ahamiyati". - TDIU